



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi, Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal





BOSH MUHARRIR:

UMAROVA H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q.M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori professor

G'afurov D.O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetlari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A.T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R.R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M.A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N.A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboyev A.K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhomdov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K.M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of Philosophy, Professor

Gafurov D.O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of Philosophy, Professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a Professor of Toshkent State University of Economics

Ashurov R.R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology

Panjiyev M.A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N.A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha; OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y , №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y , №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y , №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y , №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y , №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y , №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669245** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

HAYOTIY MAZMUNNI MO'LJALGA OLISH TALABALIK DAVRIDA HAYOTIY QADRIYATLARNI BELGILOVCHI MEZON SIFATIDA.....	10
Xayrullaeva Zebiniso Toxirovna	
OITS BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK HOLATI DIAGNOSTIKASI.....	14
Rajabova Umida Ubaydulloyevna	
O'SMIRLARDA YOLG'IZLIK HISSINING IFODALANISHI:IJTIMOY-PSIXOLOGIK TAHLIL.....	20
Yuldasheva Mahliyo Bahtiyorovna	
TALABALAR QAROR QABUL QILISHGA IJOBIY MOTIVATSIYA YARATISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA PEDAGOGIK VOSITALARI.....	27
Rajabova Go'zal Zarifovna	
PSIXIK SALOMATLIKNING O'Z-O'ZINI BAHOLASH MEZONLARI ASOSIDA KASALLIK BILAN BOG'LIQ O'ZGARISHLARI.....	32
Latipova Umida Yusufboyevna	

PSIXIK SALOMATLIKNING O'Z-O'ZINI BAHOLASH MEZONLARI ASOSIDA KASALLIK BILAN BOG'LIQ O'ZGARISHLARI

Latipova Umida Yusufboyevna

Ma'mun unuversiteti

“Psixologiyik xizmat” ilmiy-o'quv

tadqiqot markazi boshlig'i (PhD) dotsent,

ORCID: 0009-0005-1699-3531

E-mail: ulatipova933@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sog'lom va Sog'ligida muammosi mavjud bo'lgan shaxslarning psixologik holat ko'rsatkichlari o'z-o'zini baholash mezonlari asosida taqqoslab tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — kasallik holatida yuzaga keladigan emotsional nomutanosibliklarni aniqlash va ularni Sog'lom guruh bilan statistik jihatdan solishtirishdir. O'z-o'zini baholash asosida psixik salomatlik, havotir, frustratsiya, agressivlik, taranglik, somatizatsiya va kognitiv faollik holatlari baholanib, guruhlar o'rtasida ishonchli farqlar aniqlangan. Tadqiqot natijalari kasallik mavjud bo'lgan shaxslarda psixik beqarorlik va emotsional reaktivlikning ortishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Psixik salomatlik, o'z-o'zini baholash, havotir, somatizatsiya, statistik tahlil.

Abstract. This article presents a comparative analysis of the psychological state of healthy individuals and those with health problems based on self-assessment criteria. The aim of the study is to identify emotional disturbances associated with illness and to statistically compare them with those of the conditionally healthy group. Significant differences were found between the groups in terms of mental health, anxiety, frustration, aggressiveness, tension, somatization, and cognitive activity. The results confirm an increase in emotional reactivity and a decrease in psychological stability in individuals with somatic disorders.

Key words: Mental health, self-assessment, anxiety, somatization, statistical analysis..

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ психологического состояния здоровых и имеющих проблемы со здоровьем лиц на основе критериев самооценки. Цель исследования — выявление эмоциональных нарушений, возникающих при наличии заболевания, и их статистическое сравнение с показателями условно здоровой группы. По результатам самооценки были выявлены значимые различия по шкалам психического здоровья, тревожности, фрустрации, агрессивности, напряженности, соматизации и когнитивной активности. Подтверждено повышение эмоциональной реактивности и снижение психической устойчивости у больных респондентов.

Ключевые слова: Психическое здоровье, самооценка, тревожность, соматизация, статистический анализ.

KIRISH

Zamonaviy psixologiya va tibbiyotda psixik salomatlikni baholash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Insonning jismoniy salomatligi bilan bog'liq kasalliklar odatda uning emosional holati va psixologik barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, somatik kasalliklarga chalingan shaxslarda psixik salomatlikning buzilishi, havotir, agressivlik, frustratsiya va somatizatsiya kabi salbiy emosional holatlar tez-tez uchraydi. George L. Engel tomonidan ishlab chiqilgan biopsixosotsial modelga ko'ra, inson salomatligi uch asosiy omil — biologik, psixologik va ijtimoiy komponentlar birligida qaralishi zarur [1]. Psixologik holatning subyektiv, ya'ni shaxsning o'z-o'zini baholash asosida aniqlanishi sog'liq va psixik barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish uchun asosiy vosita hisoblanadi [2]. Shu nuqtai nazardan sog'lom va kasalligi mavjud shaxslarning psixologik holatidagi farqlarni o'z-o'zini baholash mezonlari asosida tadqiq etish nafaqat diagnostik, balki psixoprofilaktik va korreksion ishlarni rejalashtirishda ham muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixik salomatlik — bu nafaqat ruhiy kasalliklarning yo'qligi, balki shaxsning o'z salohiyatini amalga oshira olishi, hayotdagi stress omillariga bardosh bera olishi, samarali ishlashi va jamiyatga hissa qo'sha olish qobiliyatidir. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti bu holatni umumiy sog'liqning ajralmas komponenti sifatida tavsiflaydi [3], [8].

Shaxsning o'z psixik holatini qanday idrok etayotgani — ya'ni o'z-o'zini baholash — psixologik diagnostikada muhim metodologik mezon hisoblanadi. Subyektiv baho orqali shaxs ichki holatini, ruhiy noquyliliklarini va emotsional beqarorliklarini tashqi stimullarsiz ifoda etadi [2]. Bu yondashuv, ayniqsa kasallik fonida yuzaga keladigan emotsional holatlarni aniqlashda sezgirlikni oshiradi.

Somatik kasalliklarga ega bo'lgan shaxslarda psixologik holatdagi o'zgarishlar (havotir, agressivlik, frustratsiya, somatizatsiya, ichki taranglik) ko'p hollarda kasallikdan oldin yuzaga kelgan yoki kasallikni og'irlashtiruvchi faktor sifatida namoyon bo'ladi [4], [5].

Bu borada G. Yu. Ayzenk tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini baholovchi psixologik testlar psixik salomatlikni aniqlashda samarali usul bo'lib, shaxsning emotsional reaktivlik darajasini baholash imkonini beradi [4].

G. L. Engel tomonidan ilgari surilgan biopsixosotsial model doirasida kasalliklar nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq holda baholanishi kerakligi ta'kidlanadi [1]. Surunkali kasalliklarda, ayollar yoki bolalarda havotir va somatizatsiya holatlarining ko'payishi aynan ichki psixik barqarorlikning pasayishi bilan izohlanadi [6], [7]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, surunkali somatik kasalliklarda ayniqsa ayollar va bolalarda havotir va somatizatsiya belgilarining kuchayishi kuzatiladi. Ushbu holat, muallif fikricha, organizmning ichki psixik resurslarini safarbar qilish imkoniyatining pasayishi, emotsional barqarorlikning izdan chiqishi va moslashuv mexanizmlarining yetarlicha samarali ishlamasligi bilan bevosita bog'liqdir. Aynan mana shunday psixologik nomutanosibliklar kasallik kechishini og'irlashtiradi va shaxsning hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda 406 nafar ishtirokchi qatnashdi: 110 nafari Sog'ligida somatik muammo mavjud, 296 nafari esa shartli Sog'lom guruhga kiradi. Psixik holatni baholash uchun G. Yu. Ayzenkning o'z-o'zini baholashga asoslangan psixologik testlari qo'llanildi [4].

Metodika tarkibida psixik salomatlik, havotir, agressivlik, frustratsiya, taranglik, somatizatsiya va kognitiv faollikni baholovchi shkalalar mavjud. Ishtirokchilar o'z holatini subyektiv tarzda baholagan.

Statistik tahlilda Mann–Whitney U testi qo'llanilib, guruhlar o'rtasidagi farqlar SPSS 26.0 dasturida $p \leq 0,01$ va $p \leq 0,05$ darajasida aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ayzenk metodikasi natijalarini taxlil qilganda ishonchli darajada tafovutlar borligi aniqlandi. Psixik salomatlik shkalasi bo'yicha Sog'lom guruh vakillari yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi ($U=12074,00$; $p \leq 0,01$), bu esa kasallik holatida umumiy psixik barqarorlikning susayishini anglatadi. Bu ko'rsatkich Sog'lom shaxslar o'zini ruhiy jihatdan barqaror, faol va ijobiy baholashga moyil ekanligini ko'rsatadi.

Havotir darajasi sezilarli darajada kasalligi bor guruhda yuqori aniqlangan ($U=11536,00$; $p \leq 0,01$), bu esa tashqi va ichki omillarga bo'lgan emotsional sezuvchanlikning oshganligini bildiradi. Yuqori havotir ko'rsatkichi shaxsning stressga nisbatan past chidamliligini aks ettiradi.

Frustratsiya shkalasida ham kasal guruhda yuqori ball qayd etilgan ($U=12982,00$; $p \leq 0,01$), bu esa ularning muammoli vaziyatlarga nisbatan bardoshsizlik va norozilik holatlarini tez-tez boshdan kechirayotganini anglatadi.

Agressivlik komponenti bo'yicha Sog'lom guruh bilan solishtirganda, kasalligi bor shaxslar sezilarli darajada yuqori baho bergan ($U=12582,00$; $p \leq 0,01$). Bu ularning ijtimoiy munosabatlarda ichki keskinlik, tajovuzkor reaksiya va psixik qarshiliklarni ko'proq namoyon qilayotganini ko'rsatadi.

1-jadval

Ayzenk metodikasi asosida o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining guruhlararo taqqoslanishi (Manna–Whitney U testi natijalari, $n = 406$)

Shkalalar	Holati	N	O'rtacha rang	U	P
Psixik salomatlik	Kasal	110	165,26	12074,00	0,003
	Sog'	296	217,71		
	Jami:	406			
Havotir	Kasal	110	246,63	11536,00	0,003
	Sog'	296	187,47		
	Jami:	406			
Frustra	Kasal	110	233,48	12982,00	0,003
	Sog'	296	192,36		
	Jami:	406			
Agressivlik	Kasal	110	237,12	12582,00	0,003
	Sog'	296	191,01		
	Jami:	406			
Taranglik	Kasal	110	221,48	14302,00	0,003
	Sog'	296	196,82		
	Jami:	406			
Kognitiv	Kasal	110	208,25	15758,00	0,610
	Sog'	296	201,74		
	Jami:	406			
Somatizatsiya	Kasal	110	231,26	13226,00	0,003
	Sog'	296	193,18		
	Jami:	406			

Izoh: ** $p \leq 0,01$; * $p \leq 0,05$

Taranglik bo'yicha ham sezilarli tafovutlar aniqlangan ($U=14302,00$; $p \leq 0,01$). Bu kasal ishtirokchilarda ichki siqilish, xavotirli kutish va kuchli emotsional zo'riqishlar mavjudligini anglatadi.

Somatizatsiya shkalasi bo'yicha kasallik guruhi ishtirokchilari yuqori ball bergan ($U=13226,00$; $p \leq 0,01$), bu esa emotsional holatning tanadagi vegetativ belgilar (uyqusizlik, yurak urish, nafas qisishi va h.k.) orqali ifodalanishini bildiradi.

Kognitiv faollik shkalasida esa Sog'lom va kasal guruhlar o'rtasida ishonchli farq kuzatilmadi ($U=15758,00$; $p=0,610$), bu ko'rsatkich ikki guruhda ham bir xil darajada fikrlash va aqliy faollik saqlanib qolganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR


O'tkazilgan tadqiqot natijalari Sog'lom va kasalligi mavjud bo'lgan shaxslar o'rtasida psixologik holat ko'rsatkichlarida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. O'z-o'zini baholash mezonlari asosida aniqlangan psixik salomatlik, havotir, frustratsiya, agressivlik, taranglik va somatizatsiya kabi omillar kasal guruhda Sog'lomlarga nisbatan yuqori baholangan. Bu holat kasallik mavjud bo'lgan shaxslarning emotsional barqarorligi pasaygani, stressga nisbatan sezuvchanligi ortgani va ichki muvozanat buzilganligini anglatadi. Kognitiv faollikda esa ishonchli farq aniqlanmagan bo'lib, bu ikki guruh fikrlash faoliyatining

nisbatan bir xil darajada saqlanib qolganidan darak beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, psixik salomatlikni baholashda o'z-o'zini subyektiv baholashga asoslangan yondashuv Sog'liq bilan bog'liq psixologik nomutanosibliklarni erta aniqlash imkonini beradi. Natijalar psixodiagnostika, psixoprofilaktika va psixokorreksion dasturlarni tuzishda ishonchli asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, somatik kasalliklarga ega shaxslar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun emotsional reaktivlikni pasaytirish va psixik barqarorlikni tiklashga yo'naltirilgan yondashuvlar muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Engel G.L. The need for a new medical model: A challenge for biomedicine // Science. – 1977. – Vol. 196, No. 4286. – P. 129–136.
2. Голубева Е.А., Румянцева Т.А. Самооценка и личностные особенности больных с психосоматическими расстройствами // Психологический журнал. – 2017. – №6. – С. 75–82.
3. World Health Organization. Mental health: strengthening our response. – WHO, 2022. – <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/mental-health-strengthening-our-response>
4. Айзенк Г.Ю. Структура личности и самооценка: Практикум по психодиагностике. – М.: Смысл, 2003. – 208 с.
5. Захаров А.И. Психология и психотерапия психосоматических расстройств. – СПб.: Речь, 2010. – 384 с.
6. Гарбузова В.Ю. Эмоциональные особенности женщин с хроническими соматическими заболеваниями // Медицинская психология в России. – 2019. – №4. – URL: <https://mprj.ru>
7. Айрапетян Л.Г. Психологические особенности пациентов с психосоматическими расстройствами // Современные научные исследования и инновации. – 2021. – №3. – С. 112–117.
8. Latipova.U.Y Reproductive davrdagi stress, xavotir va depressiya holatlarining ahamiyati // Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025y 5-son.12-16-b.



13.00.00	Pedagogika fanlari
13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03	Maxsus pedagogika
13.00.04	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05	Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06	Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalar va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07	Ta'limda menejment
13.00.08	Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09	Ijtimoiy pedagogika
07.00.00	Tarix fanlari
19.00.00	Psixologiya fanlari
01.00.00	Fizika-matematika fanlari
02.00.00	Kimyo fanlari
03.00.00	Biologiya fanlari
09.00.00	Falsafa fanlari
10.00.00	Filologiya fanlari
11.00.00	Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Sobit Qayumov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.